

Yaqinda Italiyaning Rim shahrida o'tkazilgan sportning taekvando ITF yo'nalishi bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionati bellashuvlarida munosib ishtirok etgan mamlakatimiz yoshlari dovrug'i yetti iqlimga taraldi. Nega, deysizmi?

# XUSHXABAR

Chunki taekvando sir-asrorlarini qunt bilan o'rganayotgan Javohir Mirzayev hamda Jahongir Rashidov mazkur xalqaro

turnirning mutlaq g'olibi bo'lib, ikkitadan oltin medalni qo'lga kiritishgan bo'lsa, Umid Irismatov bitta oltin, ikkita kumush va ikkita bronza medalga sazovor bo'ldi. Shuningdek, chaqqon va dovyurak qizimiz Diyora Shavkatova ham jahon chempionatida alohida e'tirof etildi.

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:32 (66989)

2014-yil  
11-avgust

# TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

**YAGONASAN, MUQADDAS VATANIM, SEVGI VA SADOQATIM SENGGA BAXSHIDA, GO'ZAL O'ZBEKISTONIM!**

Yoz — 2014

## «CHOTQOL» DO'STLARNI CHORLADI

Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi «Chotqol» bolalar sog'lomlashtirish oromgohi «Yoz — 2014» ta'til mavsumining uch navbati davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Xorazm, Toshkent viloyatlari va poytaxtdan kelgan 1 700 nafardan ortiq 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z bag'riga oldi.

(Davomi 2-betda)



Jasurbek Janubiy Koreyaning Tedjon shahrida maktab o'quvchilari o'rtasida matematika fani bo'yicha bo'lib o'tgan xalqaro musobaqada kumush medalni qo'lga kiritib qaytgach, mahalladagi tengdoshlari uni rosa savolga tutishdi. Chet davlati, xorijlik tengdoshlari haqidagi taassurotlari-yu uning qanday qilib bu yutuqqa erishgani to'g'risida qiziqib so'rashganida, u quyidagilarni so'zlay ketdi:

## YURT FAXRIGA AYLANING



– Ustozlarimiz Murod aka Xo'jamov va Muqaddas opa Shernazarova aytdan aytdan, chindan ham bilimli insonga barcha imkoniyatlar eshigi ochilar ekan. Mana, bugun menga nufuzli musobaqada qatnashish nasib etdi. U yerda esa ko'kragimizga qadab qo'yilgan nishonimizdagi O'zbekiston nomini o'qib, xorijlik tengdoshim, «Sen matematikaga asos

solgan Xorazmiyning yurtidan ekansan-ku, demak, sening yaxshi natijaga erishishing aniq», deganida rosa quvondim. Qaranglar, biz ba'zan havas qiladigan xorijliklar aslida bizning ajdodlarimizga tan berishadi. Demak, har birimiz ularga munosib bo'lmoqqa harakat qilishimiz kerak.

Ha, Farg'ona viloyati, Buvayda tumanidagi 2-IDUMning 7-sinf o'quvchisi Jasurbek Imomovning eng katta yutug'i ham ana shu oddiy haqiqatni anglab yetganida. Boshlang'ich sinfda o'qiyotgan kezaridayoq matematikaga qiziqishi baland bo'lgan bu tengdoshingizning berilgan har bir mavzuni puxta o'rganib, uy vazifalarini o'z vaqtida bajargani bugun o'z natijasini ko'rsatdi. Ammo qahramonimiz kelajakda oltin medalga sazovor bo'lib, shu fan bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lish orzusida. Bundan tashqari, Jasurbek xorijiy tillarni puxta o'rganishga ahd qilindi. Bo'sh vaqtlarida esa futbol bilan shug'ullanadigan do'stingiz sportda g'alabaga erishish uchun ham matematik hisob-kitoblarni katta yordam berishini ta'kidlaydi.

Yurtimizda bayram shukhi kezeb yurgan bir paytda Vatanga munosib farzand bo'lib, uning 23 yillik to'yiga to'yona hozirlay olgan bu tengdoshingiz kabi siz ham yangi o'quv yiliga katta rejalar tuzing! Kelajakda orzu-maqсадlar bilan qadam qo'yib, dunyo kezing, muvaffaqiyatlarga erishib, yurtimiz faxriga aylaning!

Sayyora QODIROVA

## QUVONCHILIK KUN

Yunusobod tumanidagi 21-umumta'lim maktabida O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 23 yilligiga bag'ishlab «Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!» shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.



Dastlab maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Shahlo Mirqurbonova kechani ochiq deb e'lon qildi.

So'ng, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi xodimasi Umida Usmonovanning «Sen tarixni bilasanmi?» mavzusidagi mustaqillik darsi yanada qiziqarli bo'ldi. Shundan so'ng o'quvchilar o'zlarining betakror raqsarlari, she'rlari bilan yig'ilganlarni xushnud etishdi.

Tumandagi 288-umumta'lim maktabida tashkil etilgan «Yulduzcha» nomli yozgi oromgoh tarbiyalanuvchilari ishtirokida «Biz buyuk yurt farzandlarimiz» shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Dastlab maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Charosxon Zokirova so'zga chiqib, bolalarga ta'til vaqtida badiiy kitoblarni o'qish, sport bilan shug'ullanish, xorijiy tillarni o'rganish nihoyatda zarurligini aytib o'tdi.

Shundan so'ng so'zni tadbir mehmoni, «Gulxon» jurnali Bosh muharriri Zahro Hasanovaga berdi. Tadbirda ijodkor bolalar ishtirokida kichik bellashuv tashkil qilinib, ularning tez aytish, topishmoq topish, maqollarni bilish iqtidori sinovdan o'tkazildi. Tili burro, zehni o'tkir ishtirokchilar esa esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Tadbir

(Davomi. Boshi 1-betda)

## «CHOTQOL» DO'STLARNI CHORLADI

Yaqinda bo'lib o'tgan «Chotqol do'stlarni chorlaydi» festivali «Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!» shiori ostida eng ulug', eng aziz bayram – Vatanimiz mustaqilligining 23 yilligi va «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi ijrosiga bag'ishlandi. Unda Bo'stonliq tumanida joylashgan «Chotqol», «Metallurg», «Nihol», «Yoshlik», «Gagarin», «Olimpiyachi» hamda «Konstruktor» bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari dam oluvchilaridan iborat ijodiy guruhlarni ishtirok etishdi.



Xushmanzara va bahavo «Chotqol» mehmonlarni quvnoq musiqa sadolari ostida kutib oldi. Oromgohda uch mavsum davomida faoliyat yuritgan to'garak a'zolari tomonidan ijodiy ishlar ko'rgazmasi namoyish etildi.



Bayramona bezatilgan maydonda har bir oromgohning ijodiy guruhi tomonidan namoyish etilgan badiiy chiqishlar tomoshabinlarni tomonidan olqishlar bilan kutib olindi. Jajji o'g'il-qizlar ijro etgan quvnoq kuy-qo'shiq va raqslar barcha ishtirokchilarga olam-olam zavq bag'ishladi. U nutilmas taassurotlarga boy

o'tgan tadbir bolajonlarning haqiqiy bayramiga aylanib ketdi.

Festivalning eng faol ishtirokchilari esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Tadbir oromgoh ijodiy guruhi tomonidan ijro etilgan «Vatan» musiqiy kompozitsiyasi hamda «Chotqol» madhiyasi bilan yakunlandi.

Garchi festival yakunlangan bo'lsa-da, oromgohdagi jo'shqin hayot hali davom etadi.

Jamshid KAMOL.  
Muallif olgan suratlar

davomida «Sen tarixni bilasanmi?» mavzusida mustaqillik darsi o'tkazildi.



Maktabda tashkil etilgan raqs va qo'shiq to'garagi a'zolarining bir-biridan chiroyli chiqishlari tadbirga yanada fayz kiritdi.

Muzaffar AHMEDOV.  
Suratlar muallifi: M. AZIMOV

«O'rta asrlarning ilk davrida Sharqda amalga oshirilgan buyuk ilmiy kashfiyotlar haqida gapirar ekanmiz, ... Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nomini birinchilar qatorida tilga olamiz».

# YER SHARINING BIRINCHI SUVRATI

Islom KARIMOV

Obod yurtimizning baxtli o'g'il-qizlari! Shu yilning may oyida Yurtboshimiz Samarqandda dunyoning eng mashhur

olimlari ishtirokida o'tkazilgan katta ilmiy anjumanda «O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati» mavzusida juda qiziqarli va foydali ma'ruzalar qilganlaridan xabaringiz bor. Bu ma'ruzani naqafat tutun O'zbekiston, balki jahon ahli ham hayrat va qiziqish bilan tingladi. Unda Prezidentimizning: «...o'rta asrlar Sharq daholarining buyuk kashfiyotlaridan iborat ilmiy merosning chuqur qatlamlari hal

to'liq o'rganilmagan va o'z tadqiqotchilarini kutmoqda», deya alohida ta'kidlab o'tganini yaxshi bilasiz.

Demak, avvalo, ulug' ajdodlarimizning hayot yo'llarini chuqur o'rganmog'imiz zarur. Shu maqsadda taniqli adib, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi To'lqin HAYITning «Yer sharining birinchi suvrati» asaridan birinchi maqolani e'tiboringizga havola etamiz.

## MASLAHAT

### yoki otasining Donojonga yo'l-yo'riq ko'rsatgani

Ta'tilga chiqqan Donojon uch oy yozni behuda o'tkazmaslik uchun biror ishning boshini tutishni istadi: fermer Karimboyga shogird tushinmi?! Yoki boshqa biror ish bilan mashg'ul bo'lsinmi?! Shunday paytlarda aqlli bolaning ham boshi qotadi. Nima qilsin? O'ylab-o'ylab, bir qarorga kelolmadi va oxiri otasidan maslahat so'radi.

Otasi Davlat aka o'qituvchi, ko'pni ko'rgan odam, bir dam o'ylanib turgach:

– O'g'lim, yaxshisi, ulug' ajdodlarimiz – bobolaringizning hayotlarini o'rganing! Ular

bolalikda qanday bo'lishgan, odamlarga qanday foyda keltirishgan? Nima uchun ularning nomlarini shunchalik e'zozlab tilga olamiz? Shu savollarga javob topsangiz, bas!

– Kimdan boshlaganim ma'qul? – deya maslahat soldi u yana.

Davlat aka u yga kirib, kitob olib chiqdi-da:

– Menga qolsa, Muso Xorazmiydan boshlay qoling! – deya uning qo'liga tutqazdi.

Donojon xursand holda kitobni ochib, o'qishga tutindi.

## 2. ALGEBRAGA ASOS SOLINGAN KUN

«Bayt ul-hikma» koshonasi qadam bosishga joy yo'q. G'arb-u Sharqdan dunyoning

ko'zga ko'ringan olimlari yig'ilib kelishgan. Farangiston, Bag'dod, Samarqand, Xiva hatto Xonbaliq shahridan ham bir necha olim tashrif buyurgan.

Musoni hayajon bosdi. U bu aziz daqiqalarni ko'p kutdi, kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishladi. Otasi

bugungi majlisda bo'lganidami, juda xursand bo'lardi. Afsus, u bir yil oldin olamdan o'tdi.

Al-Ma'mun – dono hukmdor. U hammaga ham bunday izzat ko'rsatmaydi, lekin hozir dunyo ahli uchun qanday katta voqea ro'y berayotganini sezib turardi. «Boshlang!» degandek imo qilarkan, yoqimli jilmaydi.

Muso boshini dadil ko'tardi.

– Men, ahli jamoa! – ovozining biroz titrab chiqqanidan sal xijolat tortdi. – Sizga arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga olgan «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob»ni taklif qilaman. Asarda hind raqamlari asosida o'nlik sanoq sonlar tizimining yozilishi batafsil bayon qilingan. Meros taqsim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda, adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, shuningdek, yer o'lchash hamda shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu usul zarurdir!

Muso bir zum o'tirganlarga ko'z yugurtirgach, kitobning uch qismini alohida alohida batafsil tushuntirdi.

Al-Ma'mun o'rnidan turib kelib, uni bag'riga bosdi.

– Ey, ahli donishmandlar, bugun insoniyat uchun eng ulug' va eng ajoyib mo'jiza yaratildi. Endi 1 va 9 sonlar ortiga nol qo'yib, xoh davlat ishlari, xoh dehqonchilik ishlari bo'lsin, yengil hisob-kitob qilinadi. Buning uchun al-Xorazmiyga, davrimizning eng buyuk allomasiga sharaflar bo'lsin!

Hamma Musoni olqishladi.

## MUSO XORAZMIY

### 1. NIYAT

– Muso, hisob-kitobni to'g'irlab qo'yingizmi, bolam?

– To'g'irlab qo'ydim, lekin osh teri yetmadi, raqamlar ko'payib ketdi. Sonlarning ixcham shaklini o'ylab topishsa bo'ladi-ku, ota?!

– Qaniydi topishsa! – dedi otasi hushyor tortgan kishidek. – Rim raqamlari savdo-sotiqda, soliq undirishda, xazina hisob-kitoblarida qiyinchilik tug'diryapti.

Ellik yozmoqchi bo'lsang, beshta «X» chizishing kerak. O'zimiz ham

qiyinlab ketdik.

Bahor shamoli g'ir esib, Musoning murg'ak diliga orzu urug'ini tashlab o'tdi: «Ulg'aysam, albatta, sonlarning ixcham usulini topaman!» Lekin u hozir bu qanaqa usul bo'lishini tasavvur etolmas, ammo niyati katta edi. Yillar o'tib, ana shu oliyjanob orzu unga qanot baxsh etdi.

### 3. Donojonning javoblari

Otasi ishdan kelib, yuz-qo'lini yuvib, dasturxon boshiga o'tirgach, Donojonni savolga tutdi:

– Xo'sh, o'g'lim, al-Xorazmiy bobongiz nechanchi yilda tug'ilgan ekan?

Donojon bulami yod olgan edi, shartta javob qildi:

– U kishi 783-yilda Xorazmda tug'ilib, 850-yilda – 65 yoshlarida Bag'dodda vafot etgan.

– Qanaqa kitoblar yozganlar?

– Xorazmiy bobomiz 20

dan ortiq ilmiy asarlar bitganlar. Bular «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob», «Hind hisobi haqida kitob», «Qo'shish va ayirish haqida kitob», «Kitob surat ul-arz», «Zij», «Usturlob yasash haqida kitob», «Usturlob yordamida azimutni aniqlash haqida», «Kitob at-tarix» va boshqalar.

– Algebra so'zi qayerdan kelib chiqqan ekan?


– Xorazmiy bobomizning kitobi nomidan. «Al-jabr»dan!

– Yashang! Algoritm so'zi-chi?

– Al-Xorazmiy nomidan!

– Balli, balli, Donojon o'g'lim! Bular uchun a'lo baho! Endi Ahmad Farg'oniy haqida o'qing!

Ertaga u kishi haqida so'rayman!



## MARG'ILONLIK BOLAJONLARGA TUHFA

Kundan kunga go'zallashib, obod bo'lib borayotgan hur O'zbekistonimiz Mustaqilligining 23 yilligi oldidan yurtimizning barcha shahar-u qishloqlarida bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda.

Jumladan, Marg'ilon shahrining «Soy bo'yi» mahalla fuqarolar yig'ini hududida zamonaviy andozdagi bolalar istirohat bog'i barpo etilib, foydalanishga topshirildi.

Mazkur bog'da bolajonlarga zavq-u shavq

ulashuvchi turli attraktsionlar, o'yin maydonchalari, favvoralar qurildi. Ushbu maskan marg'ilonlik bolajonlar uchun istiqbol bayramiga ajoyib sovg'a bo'ldi.

Muhammadjon MAHMUDOVI,  
Marg'ilon shahri

## TAASSUROTLAR BIR OLAM

Dugonam Munisaxon bilan yozgi ta'tilda Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi Burchmulla qishlog'ida joylashgan «Gagarin» nomli oromgohda ikki mavsum miriqib dam oldik.



U yerda anchagina do'stlar ortirdik. Oromgohda biz, bolalarning mazmunli hordiq chiqarishimiz uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, qo'li shirin oshpazlar tomonidan tayyorlangan mazali taomlar bizga juda mazkur bo'ldi. Mehribon tarbiyachi opalarimiz boshchiligidagi toqqa sayohatga chiqdik, «Mohir qo'llar», «Quvnoq startlar», «Kim epchil-u kim chaqqon?», shaxmat-shahka musobaqalari bilan hordiq onlarimizning qanday tez

o'tib ketganini sezmay ham qoldik.

Musaffo tog' havosidan bahramand bo'lib, zilol suvlarda cho'mildik, quyoshda toblanib, chiniqib, uyimizga olam-olam taassurotlar bilan qaytdik.

Xandonabonu OMONULLAYEVA,  
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi  
102-umumta'lim maktabining  
3-«A» sinf o'quvchisi

Sakkiz yoshli Sarvaroy Ne'matillayeva tahririyatimizga o'zining chizgan rasmlarini yuborar ekan, «Hammaga yaxshi kayfiyat tilayman», deydi.

## YAXSHI KAYFIYAT TILAYMAN

Ruhshunoslarning ta'kidlashicha, yaxshi kayfiyat, eng avvalo, sog'lig'ingizni mustahkamlab, fikrlaringizni tiniqlashtiradi. Atrofga mehr-muhabbat bilan qaraysiz va siz buyuk ishlarga qodirsiz.

Ha, aytmoqchi, Sarvaroy Ne'matillayeva Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 3-umumta'lim maktabining 3-sinfiga a'lo baholar bilan o'tdi. U bugungi kunda sportning badiiy gimnastika turi bilan shug'ullanib, tasviriy san'at



to'garagiga qatnaydi. Kitob o'qishni ham yodidan chiqarmaydi. Uning aytishicha, ta'til davomida sakkizta ertak kitobni o'qishga ahd qilibdi. Sport bilan shug'ullanish, rasm chizish va kitob o'qish uning kayfiyati a'lo bo'lishiga xizmat qilarkan.

ZUHRA

— Men o'z qo'llarim bilan to'qigan nimchani buvijonimga sovg'a qilmoqchiman. Ular har gal uni kiyganlarida meni duo qiladilar... To'qishni yaxshi o'rganib olsam, o'rtoqlarimga ham turli buyumlar to'qib, hadya qilaman...

Tengdoshingiz Feruzaning niyatlari bisyor. Bir necha oydirki, u Samarqand viloyati «Barkamol avlod» bolalar markazining to'qish to'garagiga qatnab, bu hunarning sir-asrorlarini sidqidildan o'rganmoqda.

Bugun iste'dodli, izlanuvchan o'quvchilarni o'z bag'riga olgan Samarqand viloyati «Barkamol avlod» bolalar markazidagi tengdoshlaringiz erishayotgan yutuqlar bilan tanishasiz. Biz markazning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Gulnora opa NABIYEVA bilan bog'lanib, quyidagilarni bilib oldik.

— Maskanimizda 43 ta to'garak tashkil etilgan bo'lib, 1106 nafar bolalar mazkur to'garaklarga jalb qilingan. To'garaklarimiz nafaqat markazda, balki viloyatdagi 6, 9, 10, 11-Mehribonlik uylari,

«SOS» O'zbekiston bolalar mahallalari Samarqand uyushmasi hamda «Xo'ja Yusuf» mahallasida ham tashkil

## TA'TILIMIZ O'TAR SHOD, SEN BILAN «BARKAMOL AVLOD»

etilgan. Yaqinda markazimizning «Folklor», «Vokal», «Tasviriy san'at» to'garagi a'zolari o'rtasida «Zo'r bo'laman» mavzusida sport musobaqasi o'tkazildi. Musobaqada g'olib bo'lgan o'quvchilar tashkilotchilar tomonidan

bo'lib o'tdi. Tanlov natijalariga ko'ra 30-umumta'lim maktabi jamoasi 1-o'rinni, 1-son IDUM 2-o'rinni va 37-umumta'lim maktabi 3-o'rinlarni egallashdi.

Shahar umumta'lim maktablarining bilimdon o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Ilmlar xazinasiga yo'l» topqirlar o'yini barcha ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Markazda muhim sanalarga bag'ishlangan tadbirlarda 12500 mingga yaqin o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi. O'tkazilgan 8 ta ko'rik-tanlovning Respublika boqchichida viloyatimizdan 49 nafar to'garak a'zolari-miz ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'ldilar, — deya so'zlarini yakunladi Gulnora opa.

O'g'il-qizlarni ona Vatanga muhabbat, ajdodlarimizning ma'naviy-ma'rifiy merosiga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularning

qalbida bugungi tinch-farovon hayotimizga shukronalik tuyg'usini kamol toptirishni eng ustuvor vazifa deb hisoblagan, bolalarni bilimli, hunarli qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazida ana shunday ezgu ishlar amalga oshirilmoqda. Ulkan marralar sari dadil odimlayotgan mazkur maskanda hunar o'rganayotgan tengdoshlaringizga havasimiz keldi. Siz-chi, aziz bolajonlar, ta'til kunlarida «Barkamol avlod» bolalar markaziga qatnab, hunar o'rgandingizmi? Bu haqda bizga, albatta, yozib yuboring.

Ozoda TURSUNBOYEVA



## Riddles

### (Topishmoqlar)

There is a little pot,  
Inside are full of nails.

(Kichkina dekcha,  
Ichi to'la mixcha)



Head is comb,  
Tail is sickle.

(Boshi taroq,  
Dumi o'roq.)

Jizzax DPI qoshidagi  
2-akademik litseyining 2-bosqich o'quvchisi  
Zilola JAMOLOVA tarjimai

Aziz o'quvchilar, so'z oxiriga ushbu qo'shimchalarni qo'shib kasb egalarining nomlarini yasashni bilasizmi? **-er, -r, -ian, -ist, -man, -woman, keling, ularni o'rganib olamiz:**

1. music - musician
2. art - .....
3. science - .....
4. manage - .....
5. interpret - .....
6. photograph - .....
7. post - .....
8. police - .....



Risolat ISMOILOVA

Ushbu so'zlarning sinonim va antonimlarini topib, ularni yodlab oling:

### Synonyms

Beautiful	smart
Clever	well
Child	large
Good	good-looking
Big	see
Look	kid



### Antonyms

Up	narrow
Early	give
Sad	black
Wide	late
Take	down
White	cheerful



## A CAP - SELLER AND MONKEYS

### (Short story)

A cap - seller lived in the village. He made caps and sold them a village market in a nearby town. It was a very hot day. He was passing through a forest to sell his caps. There were many monkeys in that jungle. He got tired. He thought of taking a rest. He came under a shady tree put his bundle down and lay. He was soon asleep ... He was wearing a cap on his head.


There were monkeys on the trees. They came down and took the caps, and each of them put a hat on its head, and then climbed up the tree. When the cap seller got up, he found the bag empty. He was surprised. By chance, he saw his caps on the heads of the monkeys. It was very difficult to get back those caps. He thought of a plan. He threw away his own cap. The monkeys imitated and threw away the caps on the ground. The cap seller gathered all the caps and went to the market.

### New words:

through - orqali  
forest - o'rmon  
cap - shlyapa

rest - dam olmoq  
shady - soyali  
bundle - bog'lama

climb - sakramoq  
by chance - tasodifan  
get back - qaytarib olmoq  
throw away - otib yubormoq  
imitate - taqlid qilmoq  
gather - yig'ib olmoq.



## Would you like ...? or Do you like ...?

Would you like ...? - *Xohlaysizmi...?* yoki Do you like ...? - *Yaxshi ko'rasizmi?* iboralarini ma'no jihatidan o'xshash bo'lishiga qaramay, har xil holatlarda ishlatiladi:



**Would you like** - suhbat paytida biror narsani ko'rsatib, xohlaysizmi, deb taklif qilinsa ishlatiladi.

**For example:** - Would you like an apple Sardor? (Olma xohlaysizmi, Sardor?)

- Yes, I'd love to. (Ha, bajon-u dil)

**Do you like** - umumiy holatda, ya'ni biror narsani yoqtirasizmi, deb so'raganda ishlatiladi.

**For example:** - Do you like a chocolate? (Shokoladni yaxshi ko'rasizmi?)

- Yes, I do. (Ha, yaxshi ko'raman)

Complete the dialogue, using these expressions:  
Do you like, I'd love to, would you like.

### Dialogue

Anvar: Hello, Go'zal.  
Go'zal: Hi, Anvar. How are you?  
Anvar: Thanks very nice. And you?  
Go'zal: Fine, ... sweets?  
Anvar: Ohh, thank you very much, ...  
... sweets?  
Go'zal: Not at all. Yes I like sweets very much.  
Anvar: Ok bye bye.  
Go'zal: Bye Anvar.



Nozima UBAYDULLAYEVA,  
Dinara SHAKIROVA tayyorlashdi

# SO'ZNING YONIQ SEHRI

– Chiq, shamollab qolasan, –

Deb koyimas oyisi... deya baliqlarning suvda chiniqishini ham go'zal ham ishonchli tarzda ta'riflaydi. Uning quvnoq va tagdor satrlari kishini mulohaza yuritishga undaydi.

She'riyat shunchaki so'zlarni qofiyador qilib ishlatish emas, balki yoniq so'zlar sehri bilan o'quvchi qalbida yangicha fikr uyg'otishdir. Joylardan kelgan she'riy maktublarni saralab, sizning hukmingizga havola etgimiz keldi. O'ylaymizki, u sizni befarq qoldirmaydi. Biz esa she'riyat olamida sayr etib yurgan har bir ijodkorga borliqni qalb ko'zi bilan ko'rib, ijod qilish zavqini tilaymiz!

AXTAMQULI

## CHINIQISH

Yoz keldi-yu har kuni,  
Suvga tushar Mavjuda.  
Kun botguncha cho'milish,  
Rosa chiqdi avjiga.



Oyisi der: – Bo'ldi, chiq,  
O'zi qanday bolasan?  
Agar suvdan chiqmasang,  
So'ng shamollab qolasan.

– Bilasizmi, baliqlar,  
Suvda yashar boisi,  
– Chiq, shamollab qolasan, –  
Deb koyimas oyisi.

Borliqni bolalarimizning beg'ubor nigohi bilan ko'rish zavqiga nima yetsin. Ular unib-ulg'aygan tuprog'ining har bir giyohi-yu go'zal yurt jamolini shavq bilan kuzatishdan tolmaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ijodkor o'g'il-qizlarimizning she'rlarini o'qiganda, ko'nglimiz taskin topganini his etamiz. Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi 26-umumta'lim maktabi o'quvchisi Dilnavoz Najimova o'zining «Chiniqish» nomli she'rida;

– Bilasizmi, baliqlar,  
Suvda yashar boisi,

## OLTINGI TENDUR O'LKAM

Mening go'zal Jizzaxim  
O'rgilayin nomingdan.  
Dimog'imni qitiqlar,  
Qaynoqqina noningdan.

Chiroylisan, ko'rkamsan  
Naqadar betakrorsan.  
Tog'lar bilan o'ralgan,  
Yam-yashil chamanzorsan.

Qancha ta'rif etsam kam,  
Chiroyli she'ryozsam ham  
Har bir siqim tuprog'ing  
Ohangatengdur o'lkam.

Malika SAYFULLAYEVA,  
Jizzax viloyati



## USTOZ

Mehr bulog'ingiz quyoshga tengdir,  
Olamni yoritib turguvchi chiroq.  
Hayot yo'lingizda sinovlar ko'pdir,  
Barini birma-bir yengdingiz, ustoz.

Sabr-toqatingiz ijodingizni,  
Ta'rif aylamakka ojizdir qalam.  
Sizning mehnatingiz zahmatingizni,  
Qadrlasin hamma bo'lib jamuljam.

Men sizga tilayman, aziz ustozim,  
Doimo shogirdlar kamolin ko'ring.  
Ko'ngil tilaklarim sizga ataldi,  
El aro doimo izzatda bo'ling.

Hulka XIDIROVA,  
Qashqadaryo viloyati, Qarshi  
tumanidagi 28-umumta'lim  
maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

## O'JAR QIZ

Yonimga kel-chi, qizim,  
Tinglagin aytgan so'zim.

Deya chorladi ona,  
Unutmagin, Marjona,  
Akan bilan opangni,  
So'zini ikki qilma.  
Ularni doim «siz»la,  
Ustidan sira kulma.  
«Siz»lashdan ko'ra oyi,  
«Sen» deyish osonroq-da.  
Ular meni «sen»sirar,  
Shunisi chatoqroq-da...

E'zoza OLIMOVA,  
Sirdaryo viloyati, Guliston  
shahar, 1-akademik litseyi  
o'quvchisi



## SHARBAT

Bog'bonning dil mehri singgan,  
Avval shirin meva edim.  
Bekanning qo'li sehri bilan,  
Bol suv ichib, shakar yedim.

Qishda darmon bo'lay, deya,  
Har kun turdim bolga to'lay.  
Dasturxoniga qo'yishdilar,  
Nom chiqardim sharbat bo'lib.

## ARAZCHI OYMOMO

– Suv betida bir nima,  
Yaltiraydi, voy, momo.  
Sovuq qotgan shekilli,  
Qaltiraydi Oymomo.

– Ish buyursa oyisi,  
Rosa qovoq solibdi.  
So'ng arazlab kechasi,  
Suvga tushib olibdi.

Dilnavoz NAJIMOVA,  
Toshkent viloyati, Chirchiq  
shahridagi 26-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi



Baraka buva bilan bir devor qo'shnimiz. U kishini mahallamizdagilar xuddi o'z buvasidek yaxshi ko'rishadi. Salkam yuzga yaqinlashib qolgan bu nuroniy otaxonning asl ismini ko'pchilik bilmaydi. Ikki gapining birida «Barakalla», «Baraka topkur» kabi so'zlarni ishlatgani bois, hamma Baraka buva deb atashga o'rganib qolgan. Yana bir ajoyib odati jajji bolakaylarni ham sizlab gapiradi.

Ancha ilgari, beshinchimi, oltinchimi sinfda o'qib yurganimda Baraka buva katta o'g'li – Murod akani qattiq urishganida sensirab gapirganini eshitib, hayron qolganman. U paytlar mahallamiz ko'chasiga hali asfalt yotqizilmagan edi. Dam olish kunlaridan birida hashar uyushtirib, yo'lni tekislashga kirishgan yo'lsozlarga qarashish uchun butun mahallamizdagilar yordamga chiqishgandi. Zarur yumush bilan jo'nab ketgan Baraka buva Murod akaga erta tongdanoq hasharga chiqishini qayta-qayta tayinlab ketgandi. O'shanda nimadir bo'lib Murod aka hasharga chiqmagan ekan. Birinchi marta Baraka buvaning hovlisi tomondan qattiq-qattiq ovoq eshitilgandi.

– Yo'l qurganning yo'lini beradi, degan gapni eshitmaganmisan, o'g'lim? Nimaga hasharga chiqmading? Ertaga tekis yo'ldan yurganingda qo'shnilardan uyalmasanmi? Yo'lda bejo yotgan bitta toshni olib tashlagan kishi qancha savobga qoladi. Tekis va ravon yo'l qurganlarga savobning sanog'i yo'q. Eh, senga ishonib o'tiribman-a. Bunday qilishingni bilganimda, har qanday ishimi tashlab bo'lsa ham o'zim chiqardim.

Gapning rosti, Baraka buvaning jahli chiqqanini birinchi marta ko'rib, o'zim ham qo'rqib ketganman. Bu gaplarga ham ancha yillar bo'ldi.

## Yo'l qurganning yo'lini beradi



## DOVON MO'JIZASI

Ayni chog'da xizmat taqozosi bois, Farg'ona vodiysini poytaxt bilan bog'lovchi Qamchiq davanidan tez-tez o'tib turaman.

Har safar tog'lar bag'rida mo'jiza yaratayotgan insonlarni ko'rganimda, beixtiyor Baraka buva yodimga tushadi. Nafaqat men, balki bu yerdan o'tayotgan minglab yo'lovchilar kecha-yu kunduz tinmay mehnat qilib, jadal sur'atlarda poyezd qatnovi uchun po'lat izlar yotqizayotgan yo'lsozlarni alqab o'tadilar.

Angren shahridan dovon tomon tortilgan temiryo'l Ohangaron suv omboriga yetganda ajoyib manzara kasb etadi. Ko'mko'k mavjlanib yotgan suv ombori, so'ngra soy qoqalab ketgan temiryo'l ulkan ko'priklar orqali soynig goh o'ng tomoniga, goh chap tomoniga o'tganicha purviqor tog'lar bag'riga singib ketadi. Tog'lar bag'rini yorib o'tgan yer osti yo'li esa naqd mo'jizaning o'zi. Vaqti kelib poyezdlar qatnay boshlaganida yo'lovchilarning bir hayratiga o'n hayrat qo'shilishi, shubhasiz. Tasavvur qilib ko'ring, yer osti yo'lining uzunligi naqd o'n to'qqiz kilometr.

Mana, o'quvchi do'stim! Qamchiq dovoniga ham qisqacha sayohat qildik. Ochig'i, u yerdagi bunyodkorlik ishlarining o'ndan birini ham ko'rsatolmadim. Agar bir kun kelib, bu inshootlar qanday qurilgan ekan, deb hayratga tushmay desangiz, o'z ko'zingiz bilan yo'lsozlar ishini ko'rib zavqlanib.

Mo'jiza izlab yurmang, mo'jiza yoningizda. Ha, aytganday, yaqinda yana dovondan o'tdim. Hamrohim kimligini aytсам, ishonmaysiz. Xoh ishonib, xoh ishonmang, Baraka buva men bilan yangi yo'l qurilishini tomosha qilib qaytdi. Bir necha joyda to'xtab, yo'lsozlarni qayta-qayta duo qilayotganining guvohi bo'ldim. Uyg'a yetib kelgunimizcha «barakalla» degan so'z tillaridan tushmadi. Agar bu olamshumul qurilishni o'z ko'zingiz bilan ko'rish istagi tug'ilgan bo'lsa, sizga ham barakalla, deymiz.

Yusuf ABDULLAYEV



## TOVOQSOYLIK QORA BELBOG' SOHIBASI

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi Tovoqsoy iqtisodiyot va tadbirkorlik kasb-hunar kollejida o'quvchilarning sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bu yerda sportning basketbol, qo'l to'pi, stol tennisi, yengil atletika, karate to'garaklari tashkil etilgan bo'lib, ta'til bo'lishiga qaramay, mashg'ulotlar muntazam o'tkazilmoqda.

Kollejda kompyuter va kompyuter tizimlarini sozlash va ta'mirlash texnigi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan O'g'iloy Sholimova o'zi tanlagan mutaxassislikni egallash bilan birga, sportning karate turi bilan shug'ullanib kelmoqda. Bir necha musobaqalar g'olibi, 1-Dan qora belbog' sohibasi bo'lgan bu sportchi qiz bilan ustozlari-yu tengdoshlari haqli ravishda faxrlanishadi.

Joriy yil avgust oyida Turkiyada o'tkaziladigan Osiyo chempionatiga ustozlari Jamshid Ertamatov va Baxtiyor Inoqov qo'l ostida qizg'in tayyorgarlik ko'rayotgan karatechi qiz O'g'iloy Sholimovaga omad tilaymiz.

BONU tayyorladi



Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 15-Olimpiya zaxiralari bolalar va o'smirlar ixtisoslashtirilgan sport maktabiga bugun 500 nafarga yaqin o'g'il-qiz doimiy a'zo. Bu yerda o'quvchilarning shaxmat-shashka bilan muntazam shug'ullanishi, iqtidorini namoyon etishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

## ISTE'DODLI SHAXMATCHILAR MAKTABI

Haftasiga olti marotaba to'rt soatdan mashg'ulot olib boriladigan maktabda yosh shaxmatchilarning intellektual salohiyati va mahoratini oshirishda Ravshan Shukurov, Elbek Aliqulov, Sunnat Banyazov, Nodira Nodirjonova, Sevara Boymurodova kabi tajribali murabbiylar astoyidil mehnat qilib, yosh sportchilarga aql gimnastikasining sir-asrorlarini puxta o'rgatib borishmoqda.

Sport maktabimiz ko'plab el-u yurt tanigan shaxmatchilarni tarbiyalagan dargoh sanaladi, deydi OZBO'SM ning katta murabbiyi Ravshan Shukurov. Xalqaro grossmeysterlar Anton Filipov, 17-jahon chempioni, grossmeyster Rustam Qosimjonov kabi shaxmat ustalari maktabimiz tarbiyalanuvchilari ekanligi kishida g'urur va iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

Mazkur sport maskani xalqaro, qit'a va jahon miqyosidagi musobaqalarda sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritayotgan, dunyoning kuchli sportchilari bilan tengma-teng bahs yurita oladigan yosh iste'dodlarni kashf etishda davom etmoqda. 2012-yilda Sloveniyaning Maribor shahrida dunyoning 126 mamlakatidan qariyb 2600 nafar sportchi ishtirok etgan jahon chempionatida g'olib chiqqan sakkiz yoshli shaxmatchimiz Nodirbek Abdusattorov, 2013-yil Birlashgan Arab Amirliklaridagi jahon chempionatining kumush medal sohibasi Bahora Abdusattorova, o'sha yil Shri-Lankada o'quvchilar o'rtasidagi Osiyo

championatida g'olib bo'lgan shaxmatchilarimiz Ortiq Nig'matov, Shamsiddin Vohidov, Dilbar Hamroyeva kabi yosh sportchilar shu maktab tarbiyalanuvchilari.



Ha, bugun yoshlarimiz dunyoning turli mamlakatlarida tashkil etilayotgan xalqaro turnirlar, Osiyo va jahon chempionatlarida O'zbekiston nomidan maydonga chiqmoqda. Ular dunyoning kuchli davlatlaridan kelgan tengdoshlari bilan kechadigan murosasiz bellashuvlarda g'alaba qozonishi, eng muhimi, shohsupada o'zining sharafiga Vatanining bayrog'i baland ko'tarilayotgandagi hayajonni his etish bu nafaqat farzandlarimizning, ota-onalarning, balki butun o'zbek xalqining quvonchidir.

Davron SUNNATOV.  
A'lo ABDULLAYEV olgan surat

## YOSH CEMPIONNING DADIL ODIMLARI

Poytaxtimizning Olmazor tumani, Guruchariq mahallasida yashovchi o'n olti yoshli Hasanbek Abdushukurovning shotokan karate sport turi bo'yicha erishayotgan yutuqlariga mahallaning ko'pchilik yoshlari havas qilmoqda.

Bugun yurtimizda farzandlarimizning jismonan sog'lom, ma'nan yetuk inson bo'lib kamol topishida mahallalarda bunyod etilayotgan sport majmualari, umumta'lim maktablari qoshidagi to'garaklar, sport maydonlarining roli beqiyos.

Hasanbek bir necha yildan buyon tumandagi 37-bolalar va o'smirlar sport maktabida shotokan karate sirlarini puxta o'zlashtirib keladi. Uning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishida mahallada yoshlarning sport bilan shug'ullanishi uchun yaratilgan sharoit muhim rol o'ynadi.

Hasanbek dastlab tuman,

poytaxtimiz miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda ishtirok etib, g'oliblar safidan joy oldi. Bu uni yanada ko'proq shug'ullanish va yuqori natijalarga erishishga undadi.

2010-yili Hasanbek Malayziyada o'tkazilgan Osiyo chempionatida g'olib bo'ldi. Keyingi yili Singapurda shotokan karate bo'yicha dunyoning qirqdan ortiq davlati vakillari o'rtasida jahon chempionati o'tkazildi. O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi tarkibida ishtirok etgan Hasanbek Abdushukurov yakkalik bahslarida o'z vazn toifasida dunyoning kuchli sportchilari orasida tengsiz ekanini isbotlab, chempionatning oltin medalini qo'lga kiritdi.

Farzandlarimizning nufuzli musobaqalarda munosib ishtirok etib, Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarayotgani Prezidentimiz rahnamoligida yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan doimiy g'amxo'rlik samarasidir, deydi Hasanbekning otasi Saidazim Saydullayev. Bu e'tibor va g'amxo'rlik yoshlarimizning jahonning kuchli sportchilari orasida hech kimdan kam emasligi va kam bo'lmasligini isbotlamoqda.


Buxoro boks maktabi o'zining mashhur charm qo'lqop ustalari bilan dong taratgan. Jahon chempioni, Olimpiya o'yinlari sovrindori Abbas Atoev ham ana shu boks maktabida kamol topgan.

## BOKSCHILAR SAFI KENGAYMOQDA

Ayni paytda shahardagi zamonaviy boks maktabida 130 dan ziyod yoshlar malakali murabbiylar rahbarligida muntazam shug'ullanmoqda.

Ular Abbosga munosib idosh bo'lishni maqsad qilishgan. Gulnoza Rahmatova, Muhtaramabegim Ro'ziyeva va Aziza Ma'mirova shunday bokschilar sirasiga kiradi. Polvon qizlarimiz kelajakda Vatanimiz sharafiga munosib himoya qilishiga ishonamiz.

Shoh MUHAMMAD



KOINOTGA SAYR



GALAKTIKA VA YULDUZLAR

Fazodagi yulduzlarning ulkan to'dalari butun bir Galaktikani hosil qiladi. Bizning Yer sayyorasi joylashgan Galaktika Somon Yo'li deb ataladi. Agar unga koinotdan qaralsa, u xuddi spiralga o'xshab ko'rinadi. Yer esa ana shu spiralning bitta o'ramida joylashgan.


Yulduzlar umri millionlab yillar davom etadi. Ular gaz va changning koinot to'plamlarida – tumanliklarda paydo bo'ladi.

Koinotda qancha yulduz borligi hammani qiziqtiradi, albatta. Biz tunda ko'radigan bu samo jismi koinotdagi son-sanoqsiz yulduzlarning bir qismidir. Astronomlarning hisob-kitoblariga ko'ra, faqat Somon Yo'lining o'zida chamasi 200 milliard yulduz bor. Buni qarangi, yulduzlar turli ranglarda bo'lar ekan. Ularning rangi haroratiga qarab farqlanadi. Eng sovuq yulduzlar qizil rangda bo'ladi. Bundan tashqari, to'q sariq, sariq, oq, moviy tusdagi yulduzlar ham mavjud.

Nigora JO'RAYEVA tayyorladi

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

TENG BO'LAKLARGA BO'LING-CHI!



8



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

11-avgust 2014

Tahrir hay'ati:  
Omonulla YUNUSOV, Abdug'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Feruza JALILOVA, Sa'dullo TURSINOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib), Sobitxon TURGUNOV, Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir  
Sayyora QODIROVA  
Rassom Feruzbek KAMOL o'gli


Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz  
Tel./faks: 244-63-08  
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taqoq. ISSN 2010-6092 Adadi – 30108 Buyurtma – S 607

JONIVORLAR O'LAMI

FLAMINGO

Bolajonlar, bu qush bilan ko'pchiligingiz oynayi jahon orqali yaxshi tanishsiz. Ha, topdingiz, oyoqlari uzun, patlari to'q qizg'ish rangdagi bu qush flamingodir.



Ko'cha-ko'yda yurganingizda, tarvuz sotilayotgan rastalarga ko'zingiz tushganida darhol tarvuz olaylik, deb ota-onangizga eslatib qo'yasiz, shundaymi?

Ammo ona tabiatning ana shu ajoyib ne'mati haqida to'liq ma'lumotga egamisiz? Bugun siz tarvuzning xususiyatlari bilan tanishasiz.

Tarvuz sersuv poliz ekinlaridan, u kishiga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlovchi xususiyatga ega. U ko'p yillik o'simlik turkumiga kiradi. Tarvuzning asl vatani Afrika, Misr o'lkalari. Hindistonda tarvuz uch ming yillardan beri ekilib kelinadi. U Amerika, Janubiy Yevropa, Xitoy, Turkiya, Eron, Yaponiya va Avstraliya mamlakatlarida ham keng tarqalgan. Mevasining tarkibida 8,0 – 13,5 foiz quruq modda, 5,8 – 11 foiz qand moddasi mavjud.



ONA ZAMIN NE'MATI

Tarvuz tarkibining 90 foizdan ko'prog'i suvdan iborat. U issiqsevar o'simlik. Uning ertapishar va kechpishar navlari bor. Tarvuzning yangi uzilganini bilish uchun uning bandiga qarab sotib olingandir ma'qul. Tarvuzning yengili odatda uning pishib yetilgani va mazali ekanidan dalolatdir.

Ushbu poliz ekinidan tabobatda kamonlikda, jigar, buyrak, yurak kasalliklarida keng foydalaniladi. Tarvuz sharbati isitma tushirishda, sariq kasalligida, bosh og'rig'ida ham yaxshi davo bo'ladi.

O'zbekistonda uning 15 dan ortiq navlari ekiladi. Jumladan, Marmar, Qo'ziboy, Manzur, Surxon, Tongi, O'zbekiston, O'rinboi, Hayitqora va boshqa turlari yetishtiriladi.

Manzura UBAYDULLAYEVA

Bilasizmi??

MING DARDGA DAVO

– Bobojon, nega asalni ming dardga davosiz? – so'radi nabira asalarilarni parvarish qilayotgan bobosidan.  
– Asal yesang, doimo sog'lom, baquvvat, kuchli bo'lasan, – dedi boba asalni piyolaga solib nabirasiga uzatarkan. – Asalning tarkibi juda murakkab bo'lib, unda uglevodlar, mineral tuzlar, vitaminlar, fermentlar, garmonlar, alkaloidlar, efirlar, organik kislotalar, azotli moddalar bor. Uni ko'p kasalliklarga davo bo'lishining sababi ham shundandir.

